


2020-yil yanvar-iyun oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Hozirgi vaqtida xizmatlar sohasi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekistonda uchlamchi sektor, ba'zan xizmatlar sohasi shunday ataladi, mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.


2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra 27 176 ta faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlardan, xizmatlar sohasida 16 474 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda.

**2020-yil 1-iyul holatiga korxona va tashkilotlarning umumiyligi sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlar umumiyligining 11 730 ta korxona va tashkilotlar kichik biznes subyektlarini tashkil etadi. 2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra, ularning ulushi 71,2 % ni tashkil etdi.

**2020-yil 1-iyul holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan,
kichik tadbirkorlik subyektlarning ulushi, % da**
(fermer va dehqon xujaliklardan tashqari)




2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar ulushi 41,2 % ni tashkil etdi.

Yaqin va uzoq xorij mamlakatlari bilan, shuningdek turizm sohasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning ulushi 7,5 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxona va tashkilotlar umumiyligining ulushi 5,5 % ni tashkil etdi. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko'rsatuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 3,9 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 1,9 % ni tashkil etdi.


2020-yil 1-iyul holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4 658,2 mlrd. so'mga teng bo'lib, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,7 % ni tashkil etdi.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanganda savdo xizmatlariga 32,8 %, transport xizmatlariga 21,4 %, moliyaviy xizmatlarga 16,0 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlariga 5,0 % da yuqori ulushlar ketma-ketligi kuzatildi.

2020-yil yanvar - iyun oylarida ko'rsatilgan
bozor xizmatlari tarkibi, % da



2020-yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 541,2 mlrd. so'mga oshdi. Joriy yilning oldingi (yanvar-may oylari) davriga nisbatan xizmatlar hajmi 1 176,7 mlrd. so'mga ko'paydi.

**2020-yil yanvar-iyun oylarida ayrim xizmat turlari
hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm**



Joriy yilning oldingi (yanvar- may oylari) davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari 411,7 mlrd. so'mga, transport xizmatlari 336,0 mlrd. so'mga, moliyaviy xizmatlar 136,0 mlrd. so'mga hamda ta'lim sohasidagi xizmatlar 30,1 mlrd. so'mga oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.


Ma'lumot uchun: 2019-yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlari – 208,5 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlar – 180,4 mlrd. so'm, ta'lim sohasidagi xizmatlar – 48,6 mlrd. so'mga oshgan.

**2020-yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

| | Hajmi, mlrd. so'm | O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % |
|---|----------------------|---|
| Xizmatlar – jami | 4 658,2 | 102,7 |
| shu jumladan: | | |
| aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 232,9 | 110,5 |
| moliyaviy xizmatlar | 744,7 | 131,3 |
| transport xizmatlari | 995,7 | 96,9 |
| shu jumladan: avtotransport xizmatlari | 963,6 | 99,8 |
| yashash va ovqatlanish xizmatlari | 114,4 | 82,9 |
| savdo xizmatlari | 1 528,4 | 101,2 |
| ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 122,2 | 87,6 |
| ta'lim sohasidagi xizmatlar | 165,1 | 120,4 |
| sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 61,4 | 96,4 |
| ijara xizmatlari | 120,7 | 95,9 |
| kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar | 150,1 | 90,2 |
| shaxsiy xizmatlari | 147,9 | 91,0 |
| me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 62,6 | 69,6 |
| boshqa xizmatlar | 212,1 | 96,6 |

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar 131,3 % da, ta'lif sohasidagi xizmatlari 120,4 % da, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 110,5 % da, xizmat turlarida qayd etildi.


**2020-yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari me'morchilik, muhandislik izlanishlari sohasidagi xizmatlar 69,6 %, yashash va ovqatlanish xizmatlari 82,9 %, ko'chmas multk bilan bog'liq xizmatlar 87,6 %, va kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash 90,2 % da kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining uchdan bir qismiga yaqini savdo xizmatlarini tashkil etdi. 2020-yil yanvar-iyun oylarida uning ulushi 32,8 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari 21,4 %, moliyaviy xizmatlar 16,0 % va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 5,0 % egallaydi.


**2020-yil yanvar-iyun oylarida
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da**



2020-yil yanvar-iyun oylarida savdo xizmatlari hajmi 1 528,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 32,8 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 208,5 mlrd. so'mga oshdi.

2020-yil yanvar-iyun oylarida savdo xizmatlari tarkibi, % da



Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

2020-yil yanvar-iyun oylarida chakana savdo (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ning ulushi 86,0 % ni tashkil etadi.


Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 9,6 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosidan tashqari bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 4,4 % ni egalladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fuqarolik jamiyatida va bozor iqtisodiyotida yuz beradigan jarayonlarga ijobiyligi ta'sir ko'rsatish uchun zarur.

Hayotning ko'pgina sohalarida AKT joriy etilishi va rivojlanishi jamiyat, hukumat va biznes bilan bog'liq ko'plab tashqi va ichki jarayonlarni soddalashtirish va tezlashtiradigan muhim element hisoblanadi.

2020-yil yanvar-iyun oylarida aloqa va axborotlashtirish
xizmatlarining tarkibi, % da




2020-yil yanvar-iyun oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 232,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Oldingi (yanvar-may oylari) davrga nisbatan o'sishi 25,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) katta qismni egallab, uning ulushi 96,9 % ni tashkil etdi.

Bugungi kunda o'quv jarayonini sifatli va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy avtomatlashtirilgan laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod darsliklari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 114,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 2,5 % ga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 93,5 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 6,5 % ga to'g'ri keladi.

Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

2020-yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 744,7 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 131,3 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning eng katta qismini pul-kredit sohasidagi vositachilik bo'yicha xizmatlar (90,6 %) tashkil etadi.

**2020-yil yanvar-iyun oylarida
moliyaviy xizmatlarning tarkibi, % da**




**2020-yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

| | Hajmi, mlrd. so'm | O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da |
|-----------------------------|----------------------|---|
| Qashqadaryo viloyati | 4 658,2 | 102,7 |
| Qarshi sh. | 2344,7 | 106,4 |
| Shahrisabz sh. | 177,1 | 100,3 |
| tumanlar: | | |
| G'uzor | 166,6 | 99,5 |
| Dehqonobod | 111,0 | 99,9 |
| Qamashi | 148,9 | 100,0 |
| Qarshi | 175,3 | 96,9 |
| Koson | 260,9 | 101,9 |
| Kitob | 232,3 | 101,1 |
| Mirishkor | 82,9 | 96,0 |
| Muborak | 153,2 | 98,3 |
| Nishon | 153,9 | 100,9 |
| Kasbi | 104,5 | 102,7 |
| Chiroqchi | 201,5 | 99,5 |
| Shahrisabz | 156,8 | 96,1 |
| Yakkabog' | 188,6 | 97,5 |

Hududlar o'rtaida eng katta hajm Qarshi shahri (2 344,7 mlrd. so'm), Koson (260,9 mlrd. so'm), Kitob (232,3 mlrd. so'm), Chiroqchi (201,5 mlrd. so'm) va Yakkabog' (188,6 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Mirishkor (82,9 mlrd. so'm), Kasbi (104,5 mlrd. so'm) va Dehqonobod (111,0 mlrd. so'm) tumanlarida kuzatilmoqda.


**2020-yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da**



Yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari Kitob (101,1 %), Koson (101,9 %), Kasbi (102,7 %) tumanlarida va Qarshi shahri (106,4 %)da kuzatildi.

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda respublikaning har bir iqtisodiy salohiyati tuman va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

**2020-yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor
xizmatlari umumi hajmida hududlarning ulushi, % da**



Hududlar o'rtasida xizmatlar umumi hajmida eng katta ulushni Qarshi shahri (50,3 %), Koson (5,6 %), Kitob (5,0 %), Chiroqchi (4,3 %) va Yakkabog' (4,0 %) tumanlari egallaydi.

Hududlar o'rtasida eng kam ulush Mirishkor (1,8 %), Kasbi (2,2 %), Dehqonobod (2,4 %) va Qamashi (3,2 %) tumanlariga to'g'ri keladi.